
“E-EKSPERTIZA” YAGONA ELEKTRON AXBOROT TIZIMI ISHGA TUSHIRILADI “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident farmoni qabul qilindi

Farmon bilan O‘zbekistonda sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021–2025 yillarga mo‘ljallangan kontseptsiyasi hamda kontseptsiya bo‘yicha 2021–2023 yillarda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan **“yo‘l xaritasi”** tasdiqlandi.

Farmonga ko‘ra, Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazi tuzilmasida yuridik shaxs tashkil etmagan holda **Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti** tashkil etildi.

Institut sud ekspertizasi sohasida **ilmiy-tadqiqot ishlarini** amalga oshiradi.

2021 yil 1 sentyabrdan:

□ davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga shartnoma asosida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq, sud ekspertizasi turlari bo‘yicha tadqiqot o‘tkazish huquqi beriladi;

□ iqtisodiy, fuqarolik va ma‘muriy ish yuritishda advokatga sud-ekspertiza tashkilotlarida shartnoma asosida advokat so‘roviga ko‘ra ekspertiza o‘tkazish tashabbusi bilan chiqishga ruxsat beriladi;

□ nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari ekspertlarini har 3 yilda bir marotaba attestatsiyadan o‘tkazish mexanizmi joriy qilinadi.

□ 2022 yil 1 martdan aholiga va vakolatli organlarga sud-ekspertlik faoliyatiga doir ma‘lumotlarni yetkazish va axborot hamkorligining barcha turlarini ta‘minlash uchun mo‘ljallangan “E-ekspertiza” yagona elektron axborot tizimi ishga tushiriladi.

Shuningdek, sohada kadrlarni tayyorlash OTMLarida **dual ta‘lim** printsipligiga muvofiq, **kamida 6 oylik** ekspertlar tayyorlash kurslarida amalga oshirilishi mumkin

Farmon bilan shuningdek, 2021–2025 yillarda joriy etiladigan **ekspertiza va tadqiqot turlari ro‘yxati (16 ta)** tasdiqlandi.

Avazjon ERGAShEV,

jinoyat ishlari bo‘yicha Qo‘shtepa tuman sudining raisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-08-31 22:16:25